



JINOYAT VA UNING BELGILARI

¹Sobirov Umarjon Umid o'g'li

¹Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi,
Ilmiy rahbar,

²Xudayqulov Feruzbek Xurramovich

²Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrasida o'qituvchisi, yuridik fanlar nomzodi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7298437>

ARTICLE INFO

Received: 26th October 2022
Accepted: 04th November 2022
Online: 07th November 2022

KEY WORDS

Kriminologiya, jinoyatchilik, harakatsizlik, kriminalistika, jinoyat kodeksi, jinoiy qilmish, jinoiy javobgarlik.

Jinoyat - bu ijtimoiy va huquqiy hodisa hisoblanadi. Jinoyat kodeksining 2-moddasida ko'rsatilgan vazifalarni amalga oshirish maqsadida jinoyat tushunchasini belgilab qo'ygan. Jinoyat kodeksida jinoyat tushunchasi aniq belgilangan bo'lib, 14-moddaning 1-qismiga ko'ra, Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyat, deb topiladi. Jinoyat - shaxsning jinoyat qonuni bilan taqiqlangan ma'lum bir shakldagi xatti-harakati hisoblanadi. Jinoyat tushunchasi harakat yoki harakatsizlik shaklidagi shaxsning xulq-atvori (xatti-harakati, faoliyati)ni ifodalaydi. Shu bilan birga, jinoyat qonunida ruhiy jarayonlar, o'ylar, fikriy xulosalar qanchalik zarar keltiruvchi bo'lishiga qaramay, jinoyat hisoblanmasligi belgilab qo'yilgan. Jinoyatga moddiy tushuncha berish g'oyat muhim bo'lib, bu nafaqat jinoyat huquqining o'ziga, balki jinoyatprotsessual, jinoyat-ijroiya huquqi, kriminalistika, kriminologiya va boshqa huquqiy fanlar

ABSTRACT

Jinoyat huquqining asosiy vazifasi shaxs va jamiyat o'rtasida yuzaga keladigan nizolarning ijtimoiy xavfli ekanligi va ularning jinoyat huquqiy tartibga solinishi kerakligini belgilashdan iboratdir. Ushbu maqolada jinoyat va uning belgilari haqida qisqacha so'z boradi.

uchun ham zarardir. Shaxs tomonidan sodir qilingan qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jinoyat, deb hisoblanishi uchun u ijtimoiy xavfli bo'lishi kerak. Jinoyat— huquqiy hodisa sifatida o'ziga xos jihatlarni ifodalovchi ma'lum bir belgilarga ega. Har qanday ijtimoiy xavfli qilmish ham jinoyat hisoblanmaydi, qilmishning jinoyat, deb hisoblanishi uchun unda jinoyat qonunida o'rnatilgan belgilar va jinoyat tarkibi mavjud bo'lishi kerak. Jinoyat kodeksida jinoyat belgilarini mustahkamlovchi maxsus modda mavjud emas. Shu sababdan jinoyat belgilari jinoyat qonunida jinoyatga berilgan ta'rif asosida aniqlanadi. Ammo shuni alohida ta'kidlash joizki, faqat ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib chiqargan qilmishlargina jinoyat hisoblanmay, balki qonun bilan qo'riqlanadigan obyektga real zarar yetkazish xavfini keltirib chiqaradigan ijtimoiy xavfli qilmishlar ham jinoyat hisoblanadi. Jinoyat kodeksining 14-moddasi, 2-qismida «Ushbu kodeks bilan qo'riqlanadigan obyektlarga zarar



yetkazadigan yoki shunday zarar yetkazish real xavfini keltirib chiqaradigan qilmish ijtimoiy xavfli qilmish, deb topiladi», deyilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, jinoyatga berilgan ta'rifdan kelib chiqib, qilmishda jinoyatning barcha belgilari bo'lsagina u jinoyat, deb topiladi. Agar muayyan zararli oqibatning kelib chiqishida shaxsning aybi bo'lmasa, bunday qilmish jinoyat hisoblanmaydi. Jinoyat huquqida bunday harakatlar qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar, deb aytiladi. Har qanday ijtimoiy xavfli qilmishni jinoyat, deb hisoblash uchun barcha jinoyatlar uchun zarur bo'lgan jinoyatning belgilari, shuningdek, shu jinoyatda aybning mavjud ekanligi va aybning shakllari ishlab chiqilgan, ana shu belgilar va aybning biror shakli mavjud bo'lsagina qilmish jinoyat hisoblanadi. Yuqorida jinoyatga berilgan ta'rifdan kelib chiqqan holda jinoyatning quyidagi belgilarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) qilmishning ijtimoiy xavfliligi;
- 2) qilmishning huquqqa xilofiligi;
- 3) qilmishda aybning mavjudligi;
- 4) qilmishning jazoga sazovor Qilmishning ijtimoiy xavfliligi bir qancha o'zgaruvchan sharoitlar, ya'ni jinoyat sodir etilgan vaqt, joy, yetkazilgan zarar-ning miqdori, aybning darajasi va shakli, shunday turdagi jinoyatlarning qay darajada tarqalganligi, aholi huquqiy ongining darajasi kabi holatlar bilan bog'liq bo'ladi. Shuningdek, ijtimoiy xavflilik ko'p tomonlamalik xususiyat-ma'nosiga ega bo'lib, miqdor va sifat ko'rsatkichlarga asosan aniqlanadigan ijtimoiy xavflilik darajasi va xususiyatini ham o'z ichiga oladi.

Jinoyat kodeksining «Maxsus» qismi ayrim moddalarida muayyan qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin yana sodir etilsa, jinoyat deb hisoblanadi. Masalan, qasddan badanga yengil shikast yetkazish (Jinoyat kodeksining 109-moddasi), pornografik narsalarni tayyorlash yoki tarqatish (Jinoyat kodeksining 130- moddasi), tuhmat (Jinoyat kodeksining 139-moddasi), haqorat qilish (Jinoyat kodeksining 140-moddasi) va hokazolar. Bunday qilmishlar birinchi marta sodir qilinsa, jinoiy qilmish darajasidagi ijtimoiy xavfli tus olmaydi. Ammo bunday qilmish ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilsa, ijtimoiy xavfli tus oladi va jinoyat, deb hisoblanadi. Huquqqa xiloflikni belgilashda Jinoyat kodeksining faqat «Maxsus» qismi normalariga tayanmasdan, «Umumiy» qism institutlari ham e'tiborga olinishi shart. «Umumiy» qism normalari «Maxsus» qism normalarini mustahkamlab, «Maxsus» qism normalarining buzilishi «Umumiy» qism normalarining buzilishiga olib keladi. Jinoyat tushunchasini izohlashda ijtimoiy xavflilik va huquqqa xiloflik jinoyatning asosiy va bir-biriga aloqador belgilari ekanligini ko'rish mumkin.

XULOSA qilib aytadigan bo'lsam, Jinoyatda ijtimoiy xavflilik belgisining mavjud emasligi o'z navbatida huquqqa xiloflikning mavjud emasligini bildiradi, ya'ni faqat jinoyat qonuni bilan ijtimoiy xavfli, deb topilgan qilmishlargina huquqqa xilof hisoblanadi. Jinoiy huquqqa xiloflik qilmishga ijtimoiy xavflilik darajasini berib, aynan shu daraja orqali qilmish «jinoyat» xususiyatiga ega bo'ladi.

References:

1. Xalq so'zi jinoyat va javobgarlik 2019 yil/7



2. Òzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "Òzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish byicha Harakatlar strategiyasi tgrisida" gi PF-4947-sonli Farmoni
3. Jinoyat va uning belgilari fayllar.org 2020.
4. Google.com.